

Натижа. Жахонда шуғулланувчилар сони жиҳатидан энг оммалашган бугунги волейболда ўта кескин ўзгарувчан йўналишлар бўйлаб фавкулдда вазиятлар талабларига мос равишда ижро этиладиган техник-тактик усуллар, уларнинг самарадорлигини таъминловчи тезкор ҳаракатланишлар, сакрашлар, йиқилиб ўйнашлар ҳажми шиддати борган сари ортиб бормоқда. Замонавий волейболда деярли барча ўйин усуллари (хужум зарбалари, тўсиққўйиш, тўп узатиш, тўп киритиш) таянчсиз ҳолатда яъни сакраб ижро этилади.

Шу мақсадда мавжуд бўлган спорт турларида эришилган натижаларни таҳлил қилиш ва истикболли йўналишларни аниқлаш долзарб муаммолардан бири ҳисобланади.

Хулоса. Қорақалпоғистон Республикаси волейбол спорт мактабининг охириги 10 йилликда

енг сермахсул мавсуми 2021-2022 йилга тўғри келиши натижаларнинг пасайиши 2023 йилга тўғри келиши аниқланди.

Қорақалпоғистон Республикаси волейбол ойинчиларининг натижаларини умумий анализ қилиш ва якуний хулоса сифатида айтиш мумкин 2020-йилда натижаларнинг аста секин пасайишини ва 2023-йилга келиб энг пассив ҳолатига келганлиги ва 2021-2022 йилдан қайта тикланиш даври бошланганлиги аниқланди. Бунга сабаб сифатида Қорақалпоғистон Республикасидаги экологик ҳолатнинг охириги йилларда оғирлашиши волейбол ойинчилари учун муҳим бўлган сувнинг айни тайёргарлик давриларида кам бўлиши ва етарлича инвентарлар билан таъминланмаганлиги сабаб қилиб кўрсатиш мантикий тўғри бўлади.

Адабиётлар

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 24 январдаги ПФ-5924-сон “Ўзбекистон Республикасида жисмоний тарбия ва спортни янада такомиллаштириш ва оммалаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Фармони.
2. [Электронный ресурс] <https://cyberleninka.ru/article/n/matematiceskaya-statistika-v-sporte/viewer>.
3. Айрапеев Л.Р. Учебник для вузов. -Т.: «Зарқалам», 2006. –С. 240.
4. Уматов А.А. Малакали волейболчиларда жисмоний иш қобилиятини шакллантириш ва уни баҳолаш методикасини ишлаб чиқиш. 2020.
5. Содиқов А.Т. 1-4 синф оқувчиларининг жисмоний тарбия дарсларидаги машқлар нағрузкасини меёрлаш, 1997.
6. Пўлатов А.А. Мусобақа оралиғини ташкил қилиш асосида таеквандо чиларнинг техник-тактик тайёргарликларини такомиллаштириш, 2023.
7. Беляев А.Б., Савин М.Б. Волейбол. Учебник. ИСБН 978-5-98724-059-5. 2009. -С. 360.
8. Волков Л.П. Теория и методика детского и юношеского спорта. – Киев: «Олимпийская литература», 2002. –С. 294.
9. Матвеев Л.П. Общая теория спорта и её приклад. Изд. четвёртое, испр. и доп. -СПБ. [И др.]: Лан, 2005.-377, [1]с.: ил., табл.; 21см.; ИСБН 5-8114-0585-05: 3000.
10. Фурманов А.Г. Подготовка волейболистов. –Минск: МЕТ, 2007. -С.329. w.w.w.

РЕЗЮМЕ. Мақолада Қорақалпоғистон Республикаси волейбол ўйинчиларининг охириги 10 йилликдаги мусобақаларда кўрсатган натижалари статистик анализ қилинган ва спортчилар натижаларининг камчилиги ва устун тарафлари буйича хулосалар келтирилган.

РЕЗЮМЕ. В статье проанализированы результаты волейболистов Республики Каракалпакстан за последние 10 лет и сделаны статистические выводы относительно преимуществ и недостатков в результате спортсменов.

SUMMARY. The article analyzes the results of volleyball players of the Republic of Karakalpakstan over the past 10 years and makes statistical conclusions about the advantages and disadvantages of athletes as a result.

MNEMONIK MASHQLAR VOSITASIDA INGLIZ TILIDAN O'QUVCHILARNING NUTQIY KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

A.Ye.Karlibayeva – doktorant

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti

Tayanch soʻzlar: mnemonika, nutqiy koʻnikmalar, kommunikatsiya, leksik birliklar, semantik tahlil, lingvistik iboralar.

Ключевые слова: мнемоника, речевые навыки, коммуникация, лексические единицы, семантический анализ, лингвистические данные.

Key words: mnemonics, speech skills, communication, lexical units, semantic analysis, linguistic data.

Jahon taʼlim tizimida oʻquvchilarning nutqiy yondashuvlarni qoʻllashga boʻlgan ehtiyoj koʻnikmalarini shakllantirishda zamonaviy pedagogik kuchaymoqda. Xususan, xorijiy tillarni oʻqitishda

o'rganilayotgan til egalarini mnemonik mashqlar vositasida mukammal o'zlashtirishga xizmat qilishi bilan bog'liq yangicha yondashuvlar paydo bo'lmoqda. Ayniqsa, mnemonik mashqlar vositasida ingliz tilidan o'quvchilarning nutqiy ko'nikmalarini shakllantirish, muvaffaqiyatli munosabat o'rnatish ko'nikmasini shakllantirishga o'z hissasini qo'shishi bilan ahamiyatli deb qaralmoqda.

Mamlakatimizda ingliz tilini o'qitishning zamonaviy konsepsiyalari mohiyati hamda mazmuni, ta'lim jarayonida integratsiya, xorijiy tillarni o'qitish masalalari va o'rganish jarayoniga innovatsiyalar G.H.Bakieva, L.T.Axmedova, J.J.Jalolov, T.K.Sattarov, M.Djusupov, D.U.Xashimova, X.D.Paluanova, A.A.Nasirov, K.Sh.Muradkasimova, F.M.Rashidova, S.A.Nazarova, A.B.Rahmonov, S.N.Abdullaeva, A.X.Jo'raev, D.M.Djuraev, D.A.Tadjibaeva, S.A.Ziyaeva tomonidan olib borilgan.

Chet tilini o'qitishda nutqiy ko'nikmalarni shakllantirish yo'llarini U.K.Nosirova, N.V.Obuxov, R.F.Gabdulxakova va bir qator boshqa olimlar shuningdek, E.Y.Malushko, S.V.Samarskaya, A.G.Solomatina, P.V.Sisoyeva, T.L.Gerasimenko, T.V.Kolesova va boshqa olimlarning tadqiqot ishlari, shuningdek, Selli Eshton-Xey, Masudul Xassan, R.Chakrakodi, Djeremi Xarmer, R.Roberts kabi xorijiy tadqiqotchilarning ishlari bag'ishlangan.

Ko'p sonli ilmiy-amaliy tadqiqotlarda ingliz tilini o'qitish uchun nutqiy ko'nikmalarni shakllantirishga va ularni baholash mezonlarini aniqlashga qaratilgan. Ammo, shu paytgacha uzluksiz ta'lim tizimida mnemonik mashqlar vositasida ingliz tilidan o'quvchilarning nutqiy ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi tadqiq qilinmagani bois nazariy tahlil va eksperimental tadqiqotlar uchun ochiqliciga qolmoqda.

Mnemonika qonunlari nazariy jihatdan XIX asrda alohida rivojlanishga erishdi. Ko'p sonli ilmiy-amaliy tadqiqotlarda ingliz tilini o'qitish uchun nutqiy ko'nikmalarni shakllantirishga va ularni baholash mezonlarini aniqlashga qaratilgan. Ammo, shu paytgacha uzluksiz ta'lim tizimida mnemonik mashqlar vositasida ingliz tilidan o'quvchilarning nutqiy ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi tadqiq qilinmagani bois nazariy tahlil va eksperimental tadqiqotlar uchun ochiqliciga qolmoqda.

Mnemonika qonunlari nazariy jihatdan XIX asrda alohida rivojlanishga erishdi [7]. Mnemonika (yunoncha: μνemonikos "*mnēmonikos*" – eslab qolish san'ati) – sun'iy assotsiatsiyalar hosil qilish yo'li bilan esda olib qolishni osonlashtiruvchi va xotira hajmini kengaytiruvchi usullar tizimi [6] hisoblanadi.

Mnemonika atamasi yunoncha so'zdan kelib chiqqan: mneme-xotira va techne-san'at, hunarmandchilik. Kozarenkoning ta'rifiga ko'ra mnemonika – bu "asoslangan ichki yozuv tizimi, vizual tasvirlar

orasidagi aloqalarni miyada to'g'ridan-to'g'ri yozib olish yodlangan ma'lumotlarning muhim elementlarini belgilash" [8] - deya hisoblaydi.

Mnemonika texnologiya pedagogik yo'nalish sifatida M.A.Ziganov, A.K.Kolechenko, Matyugin, T.B.Polyanskaya, I.Rybnikova, Ye.D.Safronova va boshqalar tomonidan ishlab chiqilgan. Mnemonika texnologiya bilan bir qatorda pedagogik mnemonika bizga psixologikdan farqli o'laroq ma'lumotlarni tezda eslab qolishni hal qilishga imkon beradigan texnologiya, boshqacha aytganda o'quvchilarga dasturni o'zlashtirishda yordam berishda va yaratishda xotirani rivojlantirish turli usullari yordamida qulay muhit hisoblanadi.

Mnemonikada qadimgi yunonlar ko'plab ma'lumotlarni yod olish uchun tasavvurdagi obrazlardan foydalanish mumkinligini aniqlashgan va shunday texnikalarni o'rganuvchi fanni mnemonika deb atashgan. Ushbu kitobda «super» xotirali insonlar sirlari, mnemotexnika turlari, ularni raqamli, matnli ma'lumotlarni, odamlarning ism-shariflari va boshqa kerakli ma'lumotlarni, tarixiy sanalarni eslab qolishda qo'llash usullari, xorijiy tillarni to'g'ri o'rganish yo'llari bayon qilingan. Bu bilimlar o'quvchilarning turli fanlarni o'zlashtirishlari, xorijiy tillarni oson o'rganishlarida qo'l keladi [6].

Ma'lumki, ma'lum bir materialni odam tomonidan samarali yodlash va ko'paytirish xotira shakllari bilan bog'liq. Materialni yodlash va ko'paytirish jarayonlarida irodaning ishtirok etish xususiyatiga ko'ra, xotira ixtiyoriy va g'ayriixtiyoriyga bo'linadi. Bu taklif qo'yidagicha ko'rish mumkin:


Birinchidan, o'quvchi avtomatik ravishda ko'p harakat qilmasdan, maxsus mnemonik vazifani (yodlash, tanib olish, saqlash yoki ko'paytirish) bajarish imkoniyati mavjud. Ammo, ushbu ma'lumotlarni yodlash, esda saqlab qolish, o'quvchilardagi xotirani yaxshilashda mnemonik mashq vositasida olib borish eng samarali usul hisoblanadi.

Mnemonika, yodlash san'ati, mnemonika – jami fokuslar va usullar, sun'iy uyushmalar tuzish orqali xotirani osonlashtiradi va xotirani oshiradi. Shunday qilib, mnemonika bu kod tushirilgan formulalardan bir turi siz bilan bog'liq tasvirlarni osongina uyg'otishingiz mumkin bo'lgan ongsiz ong yoki bu zanjirning boshqa havolasi hisoblanadi.


Mnemonika xotira nuqtayi nazaridan o'quv faoliyati – bu materialni yodlashga bo'lgan sa'y-harakatlarning mustaqilliligi, materialni yodlashga ongli e'tibor qaratishi va o'quv materialini izchil va chuqur anglash shart. Shuning uchun, ushbu material ushbu harakatning maqsadli tarkibiga kiritilgan bo'lsa, u beixtiyor eslab qolinishi mumkin. Ammo ixtiyoriy yodlash amalga oshiriladigan harakatning maqsadli tarkibiga kiritilmagan narsa, ushbu materialga yo'naltirilgan mustaqil yodlashdan ko'ra yomonroq

esda qoladi. Bularning barchasi, birinchi navbatda, yodlash amalga oshiriladigan subyektning harakati qanday tashkil etilganligi va nimaga yo'naltirilganligiga bog'liq. Shuning uchun, beixtiyor, beixtiyor yodlash faqat ishning ishi bo'lmashligi mumkin, uni bilvosita tartibga solish mumkin. Shunday qilib, pedagogik nuqtayi nazardan, eng muhim vazifa o'quv jarayonini tashkil etishdir, shunda muhim material talabalar tomonidan eslab qolinadi va u nafaqat ushbu material bilan ishlaganda, balki uni eslab qoladi. Yuqorida tavsiflangan xotira faoliyatining qonuniyatlarini chet tilining leksik birliklarini yodlashda ham aks etadi.

Mnemonik yodlash kўйидаги to'rt bosqichdan iborat (1-расм)



Mnemonika – kerakli ma'lumotlarni yodlashni osonlashtiradigan va assotsiatsiyalarni (aloqalarni) shakllantirish orqali xotira hajmini oshiradigan maxsus texnika va usullar to'plami: mavhum obyektlar va faktlarni vizual, eshitish yoki kinestetik tasvirga ega bo'lgan tushunchalar va tasavvurlar bilan almashtirish, obyektlarni xotirada mavjud bo'lgan ma'lumotlar bilan bog'lash, yodlash, ikkinchidan, talabada bunday vazifa albatta o'zi ixtiyoriy ravishda yodlash yoki ko'paytirish jarayonini talab qiladi. (2-rasm)



Mnemonik texnikaning eng mashhur tasnifi:

1. Harf-tovushli mnemonika (bir xil harflar va tovushlarning mavjudligi, zarur bo'lgan ma'lumotlarga qisman o'xshashlikni yaratish uchun yodlash);
 2. Qofiyalar (so'z yoki iboralarning undosh juftlarini yaratish, o'z ichiga olgan materialni yodlash);
 3. Assotsiatsiya usuli (yorqin, g'ayrioddiy tasvirlarni topish, qaysidir yodlangan ma'lumotlar bilan bog'lash);
 4. Sxematik-tasviriy mnemonika (turli xil sxemalardan foydalanish, jadval, kartinka, yaxshiroq yodlash uchun rasmlar);
 5. Harf-tovushli mnemonika (bir xil harflar va tovushlarning mavjudligi, zarur bo'lgan ma'lumotlarga qisman o'xshashlikni yaratish uchun yodlash).
- Xulosa sifatida shuni ta'kidlash joizki, mnemonika A1 darajali o'quvchilarga ingliz tili darslarini yaxshi o'zlashtirishda assotsiatsiv, sxematik, qofiyalar usuli yordamida tilni muvaffaqiyatli o'rganish, o'qish, yozish, tinglab tushinish, gapirish ko'nikmalarining shakllanishida ahamiyatli hisoblanadi.

Adabiyotlar

1. Бабаниязова Н. Қорақалпоғистон Республикаси В1 даражали ўқувчиларни инглиз тилининг феъл лексикасини модуль технологияси асосида ўқитиш. Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. –Тошкент: 2018, 11-б.
 2. Очилова В. Талабаларга инглиз тилидаги лексик бирликларни метакогнитив ёндашув асосида ўргатиш. Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. –Тошкент: 2022, 14-б.
 3. Илюшина А.В., Царева Л.М. Мотивация студентов медицинского вуза к межкультурному взаимодействию. // Личность в меняющемся мире: здоровье, адаптация, развитие: сетевой журн. 2019. Т. 7, №3 (26). -С. 469-478. Доступно по ссылке: <http://humjournal.rzgm.ru/art&id=388>. (дата обращения: 29.01.2022) doi: 10.23888/humJ20193469-478.
 4. Митрофановна К.А. Обучение иноязычной лексике медицинской сферы студентов-медиков. Автореферат диссертации на соискание учёной степени кандидата педагогических наук.
 5. Muxtorov M. Oliy ta'lim muassasalari talabalarining B2 darajada leksik kompetentsiyasini rivojlantirish metodikasi. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. –T.: 2023, 13-b.
 6. Мнемоника — Википедия (wikipedia.org)
 7. Мнемотехнические приёмы запоминания: [Электронный ресурс]. Режим доступа: <https://nsportal.ru/detskiy-sad/logopediya/2014/10/25/mnemo>. Дата доступа: 16.11.2019.
 8. Козаренко В.А. Учебник мнемотехники. Система запоминания «Джордано». – М.: «Самиздат», 2007. - С.350. [Электронный ресурс] – Режим доступа: <http://mnemonikon.ru/uchebnik.htm>. Дата доступа: 11.12.2019.
- РЕЗЮМЕ.** Мақоллада umumta'lim maktab o'quvchilarini ingliz tilidan nutqiy ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan mnemonik mashqlar va uning ahamiyati haqida ma'lumot berilgan.
- РЕЗЮМЕ.** В статье представлена информация о мнемонических упражнениях и их значении, направленных на формирование у учащихся общеобразовательных школ речевых навыков английского языка.
- SUMMARY.** The article provides information about mnemonic exercises aimed at developing the lexical competence of students of higher educational institutions in English, and their meaning.